



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**

B U Y R U G‘I

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati
institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada
takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-avgustdagi
PF–124-son Farmoni ijrosini ta‘minlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-avgustdagi PF–124-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, shuningdek, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibini kengaytirish, faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu Farmoni ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin (ilova qilinadi).

2. Quyidagilar:

Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi Nizomi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

Raqamli texnologiyalar vazirining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Jamoatchilik Kengashining kotibi hisoblanadi va u Jamoatchilik Kengashi faoliyatini tashkiliy-uslubiy va axborot jihatdan ta‘minlaydi;

Jamoatchilik Kengashining faol a‘zolari, shuningdek, Jamoatchilik Kengashi faoliyatida faol ishtirok etgan, sohaga o‘z hissasini qo‘shgan soha xodimlari Jamoatchilik Kengashi taklifiga asosan, Vazirlikning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moddiy rag‘batlantirib boriladi.

4. Iqtisodiyot boshqarmasi (B.Smanov), Vazirlikning tegishli boshqarma (bo‘lim)lari bilan birgalikda har yili fuqarolik jamiyati institutlariga Vazirlikning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ustuvor ravishda inson huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga murossasiz muhitni shakllantirish hamda ta‘lim, tibbiyot, ekologiya, qurilish, transport, kommunal xo‘jaligi, bandlik, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va boshqa sohalarning eng dolzarb muammolari yechimiga qaratilgan ijtimoiy buyurtma berish bo‘yicha tanlovlar tashkil etish choralari ko‘rsin;

bunda, fuqarolik jamiyati institutlariga tegishli soha va tarmoqlarda mavjud muammolarning ta'sirchan yechimini nazarda tutuvchi tashabbusli loyihalarni amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini olish to'g'risida manfaatdor davlat organiga taklif kiritish huquqi berilganligini inobatga olib, shunday loyihalar Vazirlikka kelib tushganda Jamoatchilik kengashiga ko'rib chiqish va baholash uchun kiritib borsin, bunda, tashabbusli loyiha ijobiy baholangan taqdirda, uning tashabbuskoriga Vazirlikning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining ming baravarigacha miqdorda to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish yo'li bilan ijtimoiy buyurtma berilishi mumkinligi inobatga olinsin.

5. Vazir maslahatchisi N. Abdullayev Jamoatchilik Kengashi (A. Ishanxodjayev) bilan birgalikda har yili kamida bir marotaba Vazirlik rahbariyati ishtirokida sohaviy fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bilan ochiq muloqot o'tkazilishini tashkil qilish choralarini ko'rsin.

6. Raqamli hukumatni rivojlantirish boshqarmasi (A.Sultonov), "UZINFOCOM" Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator" MChJ (E.Gimranov) Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi bilan birgalikda 2024-yil 1-oktabrdan boshlab fuqarolik jamiyati institutlariga davlat subsidiyalari, grantlari va ijtimoiy buyurtmalarini ajratish bilan bog'liq barcha jarayonlarning shaffofligini ta'minlashga qaratilgan quyidagi asosiy imkoniyatlarni nazarda tutuvchi yagona elektron platformani ishga tushirsin:

fuqarolik jamiyati institutlari va keng jamoatchilik tomonidan tanlovlar yo'nalishlarini shakllantirish hamda ularning muhokamasida bevosita ishtirok etish;

tanlovlarda ishtirok etish uchun loyihalarni topshirish va davlat subsidiyasini olish uchun buyurtmalarni yuborish, ularni ko'rib chiqish va baholash jarayonlarini kuzatib borish;

tanlov ishtirokchilaridan talab etiladigan hujjatlarni elektron platformani davlat organlarining ma'lumotlar bazalariga integratsiya qilish orqali onlayn olish.

7. Jamoatchilik Kengashi kotibi (N. Abdullayev), Axborot xizmati (Sh. Axmatov) belgilangan tartibda mazkur buyruqni Vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin, shuningdek, mutasaddi tashkilotlarga yuborilishini ta'minlasin.

8. Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 22-avgustdagi 213-son hamda 2024-yil 22-iyuldagi 139-son buyruqlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu buyruqning bajarilishi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir

Toshkent sh.
2024-yil 30-sentabr
194-son



Sh. Shermatov